

Ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga nisbatan metodologik yondashuvlar

Uralova Gulbahor O'ktamovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada metodologiya tushunchasi, ilmiy bilish metodologiyasi, ya'ni ilmiy-bilish faoliyatining tuzilish tamoyillari, shakllari va usullari haqidagi ma'lumotlar shuningdek, ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga nisbatan metodologik yondashuvlar aks etgan.

Kalit so'zlar: ekologik-valeologiya, metodologiya, valeologiya, dialektik materializm, reseptlar.

Tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqelikda barcha hodisalar ular o'rtasidagi munosabatlarning buyuk turli-tumanligi ko'rinishida mavjud bo'ladi. Faol munosabatlar alohida ajralib turadi, ularni faoliyat deb ham atashadi. Faoliyat aniq turlari xilma-xilligi subyektlarning funksiyalarini ularning munosabatlari, subyektlar bilan o'zaro ta'siri jarayonida tavsiflaydi. Inson faoliyatining asosiy va tarixan birlamchi shakli mehnat bo'lib, unda inson tabiatga ta'sir ko'rsatadi, o'z ongida obyektiv olamni aks ettirib va ayni paytda ongli maqsadga erishib, uni o'zgartiradi.

Jamiyat rivoji va amaliyot bilan chambarchas bog'langan o'ziga xos aks etish jarayoni bilish deb ataladi, u, shunday qilib, fikrlash faoliyatidir. Bilishning maqsadi obyektiv haqiqatga erishish bo'lib, tabiat, jamiyat va inson obyektiv qonunlariga asoslangan haqiqiy uslublarni nazarda tutadi. Bilish uslublari haqidagi ta'limot, yoki tadqiqot usullari majmui metodologiya deb ataladi. U inson aqli bilan ixtiyoriy ravishda yaratilmaydi, lekin mavjud olamning muayyan qonunlarini aks ettiradi.

«Ekologik-valeologiya» ilmiy fenomeni va «bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish» pedagogik fenomenini kompleks o'rganishga nisbatan asosiy metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Asosiy umumilmiy tavsiflar, tushunchalar, ta'riflar, metodologik yondashuvlar pedagogikaga (ta'lim nazariyasiga) qo'llanganida bir ma'noli bo'lmagan talqinga ega bo'lgani uchun, ya'ni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish pedagogik hodisasini o'rganishda foydalanadiganlarimizga aniqlik kiritishga to'xtalamiz.

Metodologiyani so'zning tor ma'nosida tushunish aynan mana shundan iborat. Metodologiya so'zining keng ma'nosida har qanday faoliyatning zarur tarkibiy qismini tashkil etadi, chunki

<https://conferencea.org>

faoliyat anglash, o'qitish va rasionallashtirish predmetiga aylanadi. Bu holatda metodologiya haqida faoliyatning tarkibiy tuzilmasi, mantiqiy tashkil etilishi, uslublari va vositalari haqida gapiriladi [1, 16-j., 164-b.].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda metodologiya deganda, odatda, ilmiy bilish metodologiyasi, ya'ni ilmiy-bilish faoliyatining tuzilish tamoyillari, shakllari va usullari haqidagi ta'limot tushuniladi. Metodologiyani tatbiq etishning eng muhim jihatlari ilmiy tadqiqotlarning umumiy tarkibiy qismlaridir: muammoni qo'yish, tahlil obyekti va predmeti, tadqiqot vazifalari, ilmiy nazariyani qurish hamda olingan natijani tekshirish – uning haqiqiyliigi, ya'ni o'rganish obyektining muvofiq kelishi nuqtai nazaridan.

Bunda metodologik bilimlarning hosil bo'lishi Qadimgi Misr, keyin esa Qadimgi Yunonistonga borib taqaladigan madaniyat rivojlanishining eng erta bosqichlarida ko'zga tashlanadi. Haqiqat bilimlarning narsalarga muvofiqligi sifatida tushunilishini anglash ham o'sha davrlarga borib taqaladi. Bu an'analar falsafada davom ettirildi – hozirgi davrlarga qadar. Biz uchun quyidagi postulat muhim: «fan – tayyor va tugal haqiqatlar ombori emas, balki ularga eroishish, cheklangan bilimdan umumiyroq, chuqurroq, aniqroqqa yaqin bilim sari harakatlanish jarayonidir. Bu jarayon cheksizdir» [1, 10-j., 546-b.].

Metodologiyani rivojlantirishda navbatdagi qadamni fransuz mutafakkiri R.Dekart qo'ydi: bilish muammosini subyekt va obyekt munosabati muammosi sifatida ifodalab, u ilk bor tafakkurning o'ziga xosligi, uning voqyelikni sodda va bevosita aks ettirishdan iborat emasligi haqidagi masalani o'rtaga tashladi. Bu bilan bilish jarayonini, ya'ni haqiqiy bilimga qay tarzda – qanaqa aqliy asoslarda va qanaqa mulohaza yuritish uslublari yordamida erishilishi to'g'risidagi masalani maxsus va tizimli muhokama qilishni boshlab berdi.

Metodologiya bilish jarayonining falsafiy asoslanishi sifatida qabul qilina boshlandi. J.Lokk va D.Yum tajriba fanining uslublarini izlashni kuchaytirish uchun falsafiy asosni ishlab chiqdilar.

Nemis faylasufi I.Kantga qadar metodologiya muammolari bilish nazariyasi bilan yaqindan chatishib ketgandi. U birinchi bo'lib metodologik bilimning alohida mavqeyini asoslab berdi hamda bilimning obyektiv mazmuni va u tizimga tashkillashuvida yordam beradigan shakl o'rtasida farq ajratdi. Bu bilan ichki tuzilishining alohida shakllariga ega o'ziga xos faoliyat sifatida bilishni tahlil qilishga asos soldi. Bu ishlarni I.Fixte davom ettirdi. Uning falsafasi faoliyatning universal nazariyasini tuzishga urinishdan iborat bo'lib, F.Gegel tiizimidagi idealistik falsafada o'zining cho'qqisiga erishdi.

Nemis klassik idealizmi metodologiya muammolarini o'rganishda erishgan eng muhim natija bilishning va umuman ma'naviy faoliyatning umumiy uslubi sifatida dialektikaning ahamiyatini ko'rsatib berganlikdan iborat bo'ldi. Biroq ma'lum ilmiy doiralarda (nomlari ko'rsatilgan mualliflarning ilmiy ishlari ta'sirida) dialektik materializmni tushunib olish bilan ilmiy metodologiyaning falsafiy asoslarini shakllantirish yakunlangan deb hisoblaydilar.

<https://conferencea.org>

1950-yillardan boshlab fan metodologiyasida bilimlar tizimlarining paydo bo'lishi va almashinuvi muammosi muhim o'rin tuta boshlaydi. Bu ta'lim nazariyasiga ham tegishlidir. Undan tashqari, ta'lim nazariyasi va amaliyoti bir qator chuqur o'zgarishlarni boshidan kechirib, bu jarayonlar shu paytgacha davom etmoqda. Shu munosabat bilan amerikalik fan tarixi bo'yicha mutaxassis T.Kun fanni ilmiy tafakkur paradigmalarning keskin almashishiga olib keladigan inqiloblar orqali rivojlantirish konsepsiyasini tuzadi. Angliyalik matematik va faylasuf I.Lakatos fanni tadqiqotlar dasturlarining muayyan ketma-ketligini ilgari surish va amalga oshirish asosida rivojlantirish g'oyasini taklif etadi. Ba'zi chet ellik va mamlakatimiz mutaxassislarining asarlarida faoliyat tamoyiliga asoslangan va metodologiyani ilmiy-tadqiqot faoliyatining sistematik nazariyasi sifatida tasavvur qilishga intiluvchi metodologiya konsepsiyasi rivojlantiriladi.

Bu XX asrning ikkinchi yarmida falsafiy metodologiyaning rivojlanishi xususida edi. Endi maxsus-ilmiy metodologiya haqida. U bir necha darajaga bo'linadi: umumilmiy metodologik konsepsiyalar va yo'nalishlar, alohida maxsus fanlar metodologiyasi, tadqiqot metodikasi va texnikasi (A.G.Spirkin, E.G.Yudin [1, 16-j., 165-166-bb.]).

Bu yerda alohida ta'kidlash kerakki, bizning tadqiqotimizda, birinchidan, umumiy metodologiyani falsafiy va maxsus-ilmiyga bo'lish qabul qilingan; ikkinchidan esa, maxsus-ilmiy metodologiyani qismlarga bo'lishda so'z sira ham umumilmiy metodologiya haqida bormaydi (bu g'ayritabiiy bo'lardi), balki umumilmiy metodologik konsepsiyalar va yo'nalishlar nazarda tutiladi.

Falsafa va umumilmiy metodologiya bir-biriga mos tushmasa ham, o'zaro ancha yaqindan aloqador bo'ladi: umumilmiy metodologiyaning funksiyalari tadqiqotni predmetga yo'naltirish va unga ixtisoslashgan tahlil apparatini taqdim etish bilan yakunlanadi, falsafiy metodologiya esa tadqiqot asoslari va uning natijalarini dunyoqarash nuqtai nazaridan talqin qilishni albatta o'z ichiga oladi. Metodologiya zamonaviy yo'nalishlarining yaqinligi va umumilmiy xususiyati ularda falsafiy asoslar muhim o'rin tutishiga olib keladi. Masalan, sistemali yondashishning muhim asoslaridan birini yaxlitlik tamoyilining ma'lum talqini tashkil etadi, boshqasini – chiziqiy bo'lmagan o'zini tashkil qiluvchi tizimlarning tavsifiga qaratilgan sinergetika, uchinchisini – muayyan borliq hodisalarining insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati haqidagi falsafiy ta'limot hisoblanadigan aksiologiya, shuningdek, metodologiya umumilmiy darajasining amaliy, axborot va kvalimetrik yondashuvlari va, undan tashqari, maxsus-ilmiy metodologiyalar tashkil etadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan «metodologiya» paradigmasi (keng ma'noda) har qanday aniq tizimga proyeksiya qilinishi mumkin (xususan, «pedagogika» va «ta'lim»). Pedagogikaga bunday proyeksiya natijasi «pedagogika metodologiyasi» ta'rifida ifodalanadi va quyida «proyeksiya» tushunchasining tugal tavsifidan so'ng taqdim etiladi. Bunda tushunchalarning tur-xil o'zaro bo'ysunuv mantig'iga rioya qilinadi: «umumilmiy metodologiya» ta'rifidan

«pedagogika metodologiyasi» ta'rifiga va undan «metodologik yondashuvga» (umumilmiy yoki pedagogik – o'rganish, faoliyat sohasiga bog'liq ravishda). Aytmoqchi, «pedagogika» keltirilgan mantiqiy zanjirda boshqa har qanday bilim sohasi bilan o'rin almashinishi mumkin. Shunday qilib, metodologik yondashuv – bu «metodologiya» (uni malum tushunishda) tizimining yoki paradigmal tizimining «yondashuv» tizimiga, yoki paradigmal tizimiga proyeksiyasidir, yoki ko'rib chiqilayotgan metodologiyaning «yondashuv» tizimiga gomologik ko'chirilishidir – «yondashuv» tizimining ham, ko'chirishni o'zining ham asosiy tamoyillari, qoidalari va qonunlariga muvofiq ravishda. Bu yerda ta'kidlash kerakki, o'zaro aloqador «yondashuv» va «proyeksiyalash» tushunchalarini pedagogikaga tatbiq qilish umumiy g'oyasi 2006 yilda deyarli bir vaqtda ilgari surilgan bo'lib, Ye.V.Yakovlev va N.O.Yakovleva [2, 43-b.], Ye.Yu.Nikitina va O.Yu.Afanasyevalarga [3, 9-b.] tegishlidir.

«Ekologik-valeologiya» ilmiy paradigmasi aniqlab berilganligi sababli, bundan buyon ta'limga proyeksiyasi deganda ta'lim tizimiga (tegishli ravishda, ost tizimiga) ko'chirib o'tkazilgan ekologik-valeologiyani nazariy-ta'limiy (masalan, didaktik) jihatdan ta'minlashga bog'liq bo'lgan ta'lim tizimini tushunamiz. Yoki pedagogik proyeksiyaning yuqorida keltirilgan ta'rifidan foydalanib, boshqacha aytganda, ekologik-valeologik ta'lim (ma'lum darajadagi) deb «ekologik-valeologiya» ilmiy tizimining pedagogik (ta'lim) proyeksiyasiga aytamiz.

Ekologik-valeologik ta'limning (xususan, ilmiy ekologiya-valeologiyaning didaktik proyeksiyasi ko'rinishida) bu yerda keltirilgan shakllantirish usuli boshqa fan sohalariga ham, masalan, ekologiya, valeologiya, bioximiya va h.k.ga ko'chirilishi mumkin.

Biz ekologik-valeologik madaniyatga ta'rif berar ekanmiz, faqat muayyan fan sohasidagi ekologik-valeologik o'qitishni emas, balki yanada kengroq –o'qitish, tarbiyalash va aniq maqsadga qaratilgan rivojlantirish sifatida umuman ta'limni, uning barcha mumkin bo'lgan ko'rinishlarida nazarda tutdik. Bunday holatda so'z shaxsning ekologik-valeologik yo'nalganligini, ya'ni ta'lim oluvchining tabiat, jamiyat va insonga nisbatan mas'uliyatli oqilona munosabatlarini shakllantirish haqida, salomatlikka va sog'lom turmush tarziga, shuningdek, atrof-muhit va moddiy olamga nisbatan maqsadga muvofiq munosabatga o'rgatish haqida boradi. Ekologik-valeologik madaniyatning tashkil etilishi va mazmunining salomatlikni asrashga yo'nalganligini, uning sifati, prosessualligi va natijaliligini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan pedagogika oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish metodologiyasi biz tomondan quyidagi jihatlarda o'rganiladi:

rivojlanayotgan insonning tabiat, jamiyat va o'z farovonligiga munosabatlari shakllanishining tarixiy genezisi;

asos solingan «ekologik-valeologiya»ni yaxlitlashgan fenomenini ilmiy ishlab chiqish;

<https://conferencea.org>

ekologik-valeologiyani umumiy ta'lim, boshlang'ich ta'lim tizimiga didaktik proyeksiyalash, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlariga asoslangan boshlang'ich ekologik-valeologik ta'limni rivojlantirish;

OTMda bo'lajak pedagogboshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish xususiyatlari;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish muammolarini hal etishga nisbatan metodologik yondashuvlarni optimallashtirish.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, tizimli, yaxlitlashgan, aksiologiyalashgan va sinergetik ekologiya-valeologiyaning (real hodisa va ilmiy bilimlar sohasi sifatida) xususiyatlarini hisobga olgan holda, bunday tizimni yaratish yo'lida metodologik yondashuvlarni loyihalashtirish, ixtiro qilish, amaliy ishlovdan chiqarish va maqsadga muvofiq foydalanish bosqichlarini bosib o'tish zarur.

Adabiyotlar

1. Кавтарадзе Д.Н. Основы экологического мировоззрения как задача народного образования // Вестн. образования. – 1993. – № 7. – С. 2-4.
2. Уемов А.И. Системный подход и общая теория систем. – М.: Мысль, 1978. – 272 с.
3. Комментарий к Закону Российской Федерации «Об образовании». – М.: Юристь, 1998. – 558 с.